

Ona yurtning - oltin beshiging

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KUTUB PALATASI
INV. M.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi
Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» Hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro
xayriya jamg'armasi.

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2005-yil 12 - 18-sentabr N:37 (66526)

Sayohat

Tarixchi olim Anvar Choriyevning Hazrati Bashir haqidagi qissasi bilan tanishgach, biz sinfdoshlar u kishining maqbaralarini ziyorat qilgani bordik. U yerda yana ham mufassalroq ma'lumotga ega bo'ldik. Hazratning asl ismlari Sulton Said Ahmad Ali bo'lib, 1368-yilda onasi 80, otasi 90 yoshdagida dunyoga kelgan

bo'lgan. Ikki nafari yonlariga dafn qilingan bo'lsa, qolganlarini turli podshohlar o'zlariga pir tutib yurtlariga olib ketgan ekan. Bashir hazratlari qabrining chap tomonida yana Mirzo Said Jaloliddin hazratlarining qabri bor. U kishi asli mo'g'ul podshohi bo'lgan, Bashir hazratining dovrug'ini eshitib, podshohlarni tashlab, hidoyat yo'liga kirgan ekanlar.

ASONING ARCHAGIA AULANISHI

ekanlar. U kishi sohibqiron Amir Temurning pirlari Mir Said Baraka va Xo'ja Ne'matullarning duolari mustajob bo'lib dunyoga kelganlari bois tug'ma avliyo ekanlar. Onasi keksaligi uchun sut kelmagan. Shu sababli «be shir», ya'ni sutsiz, keyinchalik el og'zida Bashir nomini olgan. 3-4 yoshigacha ota-onasi bilan yashab, so'ngra toqqa chiqib ketgan va u yerda yerto'la kavlab, o'simlik hamda meva-chevalar bilan kun kechirib, 40 yoshida avliyolik darajasiga yetganlar. 96 yil umr ko'rgan bobomizning 14 nafar farzandlari

Karomatli va bashoratchi avliyo Bashir hazratlarining xizmatlarini qilib, shu yerga dafn etilganlar. Bu tepalikda yana bir qabr bor ekan. Shayx Buzrukvor taxallusini olgan avliyo bobomiz vafotlaridan avval Udun tog'ida turib, hassasini otadilar. Hassa bir yarim kilometr uzoqlikdagi tepalikka sanchilib qoladi. Hazrat o'sha yerga dafn qilishlarini vasiyat qiladi. Yillar o'tib, o'sha aso o'sib, ulkan archaga aylangan ekan.

Ziyoratdan qaytar ekanmiz, ajdodlarimizning aqlu zakovatiga tasannolar aytdik.

Lazizxon SHOXO'JAYEV,

Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi 140- maktabning 6-sinf o'quvchisi.
Dalil va raqamlar to'g'riligini kafolatlayman. Maktab direktori: A. SHOXO'JAYEV.

SINFLARGA MANA BUNDAY QIZ KELIBDI!!



MAKTABIM - SENI MAQTAGUN

Maktabimiz bunyodkorlar shahri bo'lmish Kogonning qoq markazida joylashgan. U juda hashamatli va chiroyli bo'lib, 1600 nafar o'quvchini o'z bag'rida tarbiyalab ta'lim bermoqda. Bizda obuna masalasi yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Respublikamizning turli Faxr y o s h g a mo'ljallangan davriy nashrlariga o'qituvchilardan tortib o'quvchilargacha obuna bo'lgan. Fan to'garaklari ham muntazam faoliyat olib boradi. Men «Yosh adabiyotshunos» to'garagi a'zosiman. Uni yosh, iqtidorli ustozimiz Nasiba opa Bozorova olib boradi. Yaqinda Tog'ay Mirzoning «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi yuzasidan bahs-munozara darsini o'tkazdik. Bahsimiz juda foydali bo'ldi. Adibning ushbu asaridagi milliy g'urur, iftixor, ruh bizning qalblarda ham mavj urgandek bo'ldi. Bizni komil inson qilib tarbiyalashni maqsad qilgan barcha ustozlarimizdan minnatdorman.

Mamlakat ALIYEVA,
Buxoro viloyati, Kogon shahridagi
8-umumta'lim maktabining
6-sinf o'quvchisi.



OILA, MAHALLA, MAKTAB - HAMISHA HAMKOR

Toshkent shahri, Bektemir tumanida joylashgan 291- rusiyazon umumta'lim maktabi zamonaviy ta'mirlangani, bejirim, chiroyli did bilan jihozlangan o'quv xonalari bilan tumandagina emas, balki shaharda ham eng yaxshi maktablar sarasiga kiradi. 1350 nafardan ziyod o'quvchiga 70 ga yaqin malakali o'qituvchilar qunt bilan fan sirlarini o'rgatishmoqda. Ularning yosh avlodga berayotgan tarbiyasidan mahalla ahli, ota-onalar mamnun bo'lishmoqda. Mahalla faollari o'z faoliyatini maktab bilan uzviy bog'liq holda olib borganligi bois, o'quvchilarning ta'lim-tarbiya bobida erishayotgan yutuqlari maqtasa arzigulikdir. Ushbu ta'lim maskanida o'qituvchilarning an'anaviy avgust anjumani bo'lib o'tdi. Unda tumandagi barcha maktablarning o'qituvchilari, maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlari, mahalla faollari, ota-onalar

ishtirok etdilar. Ta'lim maskani direktori Nazarboy Ismoilov so'zga chiqib, barcha o'qituvchilarni yangi o'quv yili bilan muborakbod etdi. Avgust kengashida 7 ta sho'ba faoliyat yuritdi.

1- sho'ba bo'yicha 293-maktab direktori Sharifa Bayanova «Maktablarda davlat hujjatlarini yuritish ahvoli» haqida, shu ta'lim maskaning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Nazira Kenjayeva «Yoshlarimizni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligining o'rni» mavzusida ma'ruza qildi. Anjumanda 2004-2005- o'quv yili hisobotlari muhokama qilinib, taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Bir piyola choy ustidagi qizg'in suhbat, maktab



o'quvchilarning rang-barang konsert dasturlari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Salimjon INOMZODA.

KO'RK BO'LAY

Mening ona shahrim Namanganni bejiz Gullar shahri deb atashmaydi. Ayniqsa, shahar markazidagi so'nggi jahon andozasida qurilgan ulkan favvorani aytmayizmi... Shahrimiz tunda o'zgacha tus oladi. Rang-barang chiroqlar bilan bezatilgan binolarni ko'rib, Namangan nafaqat gullar, balki rang-barang chiroqlar shahri desam, mubolag'a bo'lmaydi. Men Mustaqillikka deyarli tengdoshman. Men bilan barobar ulg'ayayotgan ozod shahrim Namanganning chiroyli bog'lari-yu sharqiroq soylarini ko'rib she'r yozgim keladi. Ilk she'rimni 2-sinfda yozganman. Qishlog'imizda kutubxona bor. Men uning doimiy a'zosiman. Bo'sh vaqtlarimda badiiy va she'riy kitoblarni mutolaa qilishni yoqtiraman. Menga ayniqsa,

Namangan viloyati, Uchqo'rq'on tumanidagi 15-maktabning 7-sinf o'quvchisi.

Mukarrama Murodovaning «Olovlgul», Mirpo'lat Mirzayevning «Sunbula», «Yaxshi kunlar» kabi she'riy to'plamlari juda yoqadi. Yaqinda Tohir Malikning «Somon yo'li elchilari» kitobini o'qib chiqdim. Maktabimizda yozgi ta'tilda turli to'garaklar ishlab turdi. Men ham ba'zi tengdoshlarim kabi vaqtimni bekor o'tkazmay, tikuvchilikka o'qidim. Endi qiynalmay bemalol ko'ylaklar tika olaman. Kelajakdagi rejalarim esa juda ko'p. Eng asosiysi, ota-onam orzulagan chin odam bo'lib, yurtim ko'rkiga ko'rk qo'shsam deymen.

Nargiza TASHTANOVA,



Zirapcha

MENGA SO'Z BERING!

Assalomu alaykum, mening sevimli gazetam «Tong yulduzi». Ta'lim maskanimizda o'qishimiz uchun yetarli sharoit yo'qligi sababli ushbu maktubni yo'llayapman. Bizning maktabimiz Sirdaryo viloyatining Sardoba tumanidagi Hamid Olimjon shirkat xo'jaligida joylashgan. Men hozir 7-sinfda tahsil olayapman. Ta'lim maskanimizda sport zali yo'q, hatto birorta to'garak ham tashkil etilmagan. Uni-buni qo'yib turaylik, sinf xonalarimizning poli ham yo'q. Qishning qirovli kunlarida muntazam ravishda tomdan chakki o'tadi. Qalini kiyimlarda o'tiramiz.

Qishda ota-onalarimiz noilolikdan pul yig'ib, pechka qurib berishgandi. Mana, yangi o'quv yili ham boshlandi, bir-ikki oy o'tib qish keladi. Yana eski hammom, eski tos bo'lsa kerak. Sendan iltimos, ushbu maktubimni sahifalaringda chop etib, mudroq bosgan mutasaddi amakilarimizni biroz hushyor qilsang!

*Surayyo QAYUMOVA,
Mirzo Ulug'bek nomli*

10-o'rti maktabning 7-sinf o'quvchisi.



Oyim menga maktab formasi olib berganlarida juda quvonib ketdim. Chunki men endi maktabga boraman. Yozgi dam olish kunlarida 3 oy maktabga qatnadim. Bizga u yerda maktabda

o'zimizni qanday tutishimiz haqida, harflarni qo'shib o'qish, yozish, turli shakllar chizishni o'rgatishdi. Men ham ustozimiz o'rgatganlaridek uyga kelgach, hamma darslarimni

tomonidan tuhfa etilgan sovg'alarni topshirishdi. Uyga xursand bo'lib qaytdim. Ustozimiz bizga shunday chiroyli sovg'alarni olganimiz uchun

A'LOCHI QIZ BO'LAMAN

goldirmay tayyorladim. 2-sentabr kuni oyijonim bilan meni ustozimiz maktab darvozasi oldida kutib oldilar. Men ularga guldasta tutqazdim. Sinfga kirgach, hammamizni joy-joyimizga o'tqazgan ustozimiz bizni bayram bilan yana bir bor tabrikladilar. Shundan keyin bizga Prezidentimiz

Prezidentimizga rahmat aytishimizni va yaxshi o'qish orqali ularning bu g'amxo'rliklariga javob qilishimizni uqtirdilar. Men ham barcha sinfdoshlarim kabi maktabni a'lo baholarga bitirishni ko'nglimga tugib qo'ydim.

Mohlaroyim RAHIMBOYEVA,

Parkent tumanidagi 9-maktabning 1-sinf o'quvchisi.

BIRINCHI MARTA BIRINCHI SINFGA

Sitora ABBOSOVA:

- Men poytaxtimizdagi 301- bog'chaga borganman. U yerda bizga yozishni, o'qishni, rasmlar chizishni o'rgatishgandi.



Shuning uchun ham maktabga kelganimda, harflar va sonlarni bemalol taniy oldim. Birinchi qo'ng'iroq kuni meni maktabga buvijonim olib keldilar. Bizni maktabda ustozimiz Komila opa kutib oldilar. Men ustozimizga buvijonim haqida gapirib berdim. Buvijonim menga juda kichkinaligimdan har xil ertaklar aytib berardilar. Men esa ularni sinfdoshlarimga aytib beraman.

Nilufar RIXSIBOYEVA:

- Maktabimizda birinchi qo'ng'iroqni Fazilat ismli qiz chaldi. Qo'ng'iroqdan keyin biz sinfxonalarga kirdik. Bizga bu yerda ustozimiz alifbe, matematika, atrofimizdagi olam kitoblari nimalarni o'rgatishini, ularni asrab-avaylashimiz kerakligini aytdilar. Biz ham o'z navbatida yaxshi o'qishga so'z berdik.



deb o'ylardim. Mana, bu yil maktabga chiqdim. Bu yerda o'quvchilar va o'qituvchilar juda ko'p ekan. Katta sinfdagi o'quvchilar doim bizga g'amxo'rlik qilishadi. Menga, ayniqsa, hamma uchun berilgan sovg'alar juda yoqdi. Birinchi darsimiz Mustaqillik darsi bo'ldi. Bizga ustozimiz davlatimiz ramzlariga nimalar kirishini aytib berdilar va buni doimo yodda tutishimizni ta'kidladilar.



Abdulaziz ALIYEV:

- Maktabga ketayotgan o'quvchilarni ko'rib, ularga havas qilardim. Men ham tezroq katta bola bo'lib, maktabga borsam,

Tohir SULTONOV:

- Men sportga juda qiziqaman. Bo'sh vaqtlarimda doim o'rtoqlarim bilan koptok tepardim. Terma jamoamizda to'p surayotgan Mirjalol Qosimovga juda havasim keladi. Yana tulki, bo'ri, ayiq, baliq kabi hayvonlarning rasmini chizishni juda yaxshi ko'raman. Uyda menga dars tayyorlashimda opam va akam yordam berishayapti. Maktabda sho'xlik qilish yaxshimasligini ustozimiz Komila opa doim aytib turadilar. Maktabga kelgach, sinfdoshlarim bilan tanaffuslarda to'p tepib turamiz. Menga, ayniqsa, matematika juda yoqdi. Katta bo'lganimda, mashina haydayman va unga ustozlarimni



Ma'rifat G'AFUROVA:

- Mening ismimni buvijonim qo'yganlar, ismimning ma'nosi bilimli, zukko bo'lish degani ekan. Bog'chaga borgan vaqtlarimda turli she'r va qo'shiqlar yodlab, oyijonimga aytib berardim. Maktabga kelgach, yozish va hisoblashni o'rgana boshladim. Menga hamma darslar yoqdi. Katta bo'lganimda esa, dadajonimga o'xshab tish shifokori bo'lmoqchiman. Odamlarning og'riyotgan tishlarini davolab, ularning duosini olmoqchiman. Chunki buvijonim doim: - Oltin olma, duo ol, deydilar.



Madina TO'RAYEVA:

- Maktabga kelishdan oldin menga akam yozish va o'qishni o'rgatgandilar. Ularga qo'shib dars tayyorlab men ham harflarni bemalol qo'shib o'qishga o'rganib oldim. Uyda oyijonimga dastyorman. Mening oyim «Demir» qahvaxonasida ishlaydilar. Ular menga kotlet pishirishni, kartoshka qovurishni o'rgatganlar. Bo'sh vaqtlarimda ularga ovqat tayyorlashda yordamlashaman. Ustozimiz Komila opaga juda havasim keldi. Ulg'aygach, ularga o'xshab o'qituvchi bo'lmoqchiman.



*Yunusobod tumanidagi
143- maktabning 1-sinf o'quvchilari hayrati va hayajonlarini
Ozoda TURSUNBOYEVA yozib oldi.*

Quvonch

Odatda, bolalar shoiri davraning chetrog'ida, ziyofatning poygohida qolib ketadi. Ularga ilgari sal-pal e'tibor berilardi. Chunki «o'qing a'lo, bo'ling dono, degan bizga Lenin bobo!» kabi ifodali she'rlar yozib, murg'ak qalblarni zabt etganlar. Endi ular qalovini topolmayapti. Shu bois dovon oshgan yoki sanaboz qalam ahlining oshig'i olchi tushayapti.

Bolaning zehni o'tkir bo'ladi. U bir bora eshitgan narsasini darhol yod oladi. Albatta, bola ahmoq emas, har

«Kuchukcham» nomli she'rini o'qib berdim. Biz uyda kuchuk saqlamaymiz, kuchuk qo'riqlaydigan boyligimiz ham yo'q.

*Kuchukcham ko'p aqlli,
Ovqat tanlamay yeydi.
Faqat tunlar akillar,
Oyni olib ber, deydi.*

Bu she'rni ham Uzro osongina yod oldi. Endi u qayoqdadir kechalari kuchuklarning vovullashini eshitib qolsa, «oyni olib ber, deyaftimi?», deb so'raydi. «Oyni nima qiladi? Futbol qiladimi?...»,

uchrab, vafot etgan ekan. U «Gulxan», «Yoshlik» jurnallarida ishlagan. Dastlab, adabiyotimizning jonkuyar targ'ibotchisi, kamtarin, kamsuqum inson Mukarrama opa Murodova (joylari jannatda bo'lsin!) tashkil etgan «Shu'la» adabiy to'garagida A'zam O'ktam, Chori Avaz, Olloyor, Rauf Subhon kabi tengdoshlari bilan tahsil ko'rgan, ToshDU filologiyasi fakultetining kechki bo'limida o'qigan ekan.

Ravshan Fayzning do'stlari uning «saylanma»sini chop etgan deb eshitdim,

SHAMOLNI TUTVOLGAN SHOIR

qanday narsani yod olavermaydi, faqat eshitgan narsasini ko'z oldiga yaqqol namoyon qilsa, xuddi rangli filmdek aniq ko'rib tursagina yod oladi. Yaqinda rangli rasmlarni «o'qib», hiyla tajribali bo'lib qolgan to'rt yarim yashar Uzro qizimga Ravshan FAYZning «Men shamolni tutvoldim» kitobchasidan «Bodring» she'rini o'qib berdim:

*Bodring der, diring-diring,
Polizga kirib turing.
Polizga kirgan chog'da,
Palagim bosmay yuring.
Men ham sizday bolaman,
Qovoq sola olaman.
Palagimni bossangiz,
Achchiq bo'lib qolaman.*

Ertasi kuni dasturxonda bodring paydo bo'lgan zahoti Uzro o'sha she'rni yoddan ayta boshladi. Albatta, Uzro shaharda o'sayapti, u poliz, palak kabi so'zlarning ma'nosini tushunmaydi. Shuning uchun «poliz qanaqa bo'ladi? Palak nima?» deb qayta-qayta so'rab oladi. Qovun, tarvuz, handalak, bodring, oshqovoq kabi poliz mahsulotlari ekilgan dala POLIZ deyiladi. Polizda qorovul bo'ladi, lekin pishiqchilik paytida poliz tepasida qovun-tarvuz sotilmaydi, tekinga so'yib beriladi va hokazo deb uzoq tushuntirishga to'g'ri keladi.

Ehtimol, Uzro kun ora bodring yeb turgani tufayli bu she'rni osonlikcha yod olgandir deb gumon qildim. So'ng

«Yo'q, kuchuk oyni kulchatoy deb o'ylaydi, yeyman desa kerak...», «Oyni yeb bo'ladimi?», «Hammasini yeb



bo'lmaydi, faqat yarmini yeyish mumkin». «Shuning uchun oy ba'zan yarimta bo'lib qoladimi?...»

Shoir Ravshan FAYZning she'rlari bola fantaziyasini uyg'otib, harakatga keltirib yuboradi. Shoir boladek o'ylaydi, bolalar tushunadigan sodda tilda fikrni ifodalay oladi. Haqiqiy bolalar shoiri shunday bo'lishi kerak.

Surishtirib bilsam, Ravshan Fayz bundan o'n yilcha oldin baxtsiz hodisaga

lekin kitobni topolmadim («homiy» hamma tirajni sotib olib, omborga bosib qo'yamaganmikin, ishqilib). Menimcha, boshlang'ich sinflarning darsliklariga Ravshan Fayzning she'rlari ham kiritilsa yomon bo'lmadi.

Quyida Ravshan Fayzning jajji kitobchasidan olingan ayrim namunalar «Tong yulduzi» o'quvchilari hukmiga havola etiladi.

**Olima NABIYEVA
tayyorladi.**

Ravshan FAYZ

TO'RA

*Zokirlar ko'chib ketib,
Juda qiyin bo'ldi deng.
O'rniga saylov bilan,
Sinfboshi bo'ldim men.*

*Shu lahzadan eng sodiq,
Hamrohim To'ra bo'ldi.
Qo'lin tashlab men bilan,
Ayrilmas jo'ra bo'ldi.*

*Avvalgi sinfboshning,
Bo'lgandi aziz do'sti.
Lekin qarang, uning ham,
Bor ekan kamu ko'sti.*

*Biznikiga kechayoq,
To'ra kep yotib ketdi.
Va Zokirning sirlarin,
Birma-bir sotib ketdi.*

Menda taklif bor

O'YINQAROQ NIHOZ

*Issiq kunlar so'nggida
Yomg'ir juda mo'l bo'ldi.
Hovlidagi niholning
Usti-boshi ho'l bo'ldi.*

*Shamol bilan o'ynab u,
Hech tinimni bilmaydi.
Mehribon oyisining
Aytganini qilmaydi.*

*Hali oyisi kelsa,
Olarini oladi.
Kam deganda yo'talib,
Tumov bo'lib qoladi.*

*Qarang, axir u sira
Bilmas tashvish, bilmas g'am.
Yomg'ir bilan o'ynaydi,
Ko'ylagi ho'l bo'lsa ham.*

MUSHUGIMIZ

*Mushugimiz na chumchuq,
Na-da sichqon ovlaydi.
Uzun kun hisobidan,
Na bir bor miyovlaydi.*

*Uxlagani-uxlagan,
Hech kim bilan ishi yo'q,
Unga ham uyimizda,
Bir so'z qotar kishi yo'q.*

*Non, sut, go'sht, pishloq bari
Hech bekamu ko'st bo'lgach.
U sho'rlik kelib-kelib
Sichqon bilan do'st bo'lgan.*

*Bu holni ko'rgan buvim,
Qo'y, u-bo'sh, latta, dedi.
Beshga kirding, u sendan,
Uch-to'rt yosh katta, dedi.*

MEN SHAMOLNI TUTVOLDIM

*Kecha darcha yonida
Shamolni zap tutvoldim.
Poylab turib eng sovuq
Joyidan bir yutvoldim.*

*Endi u sho'rlik tinmay
«O'h-ho', o'h-ho'» qiladi.
Qaytib chiqa olmasdan
Tomog'imni tiladi.*

IT VA KABUTAR

Quvonchbekning Simba laqabli iti bor edi. Simba aqlli, hech kimga ozor bermas, hech bir jonivorga tegmas ekan. Yoz kunlaridan birida Simbani Quvonchbek sayr qildirish uchun dalaga olib ketdi. Dalada bir necha kabutarlar don terib yeb yurishar edi. Shu payt qayerdandir bir mushuk paydo bo'ldi va kabutarlarga tashlandi. Kabutarlar baravariga osmonga ko'tarildilar, ammo mushuk bittasini tutib ulgurgan edi. Buni ko'rgan Simba o'zini mushukka tashladi. Mushuk og'zidagi kabutarni tashlab yubordi va qochib ketdi. Kabutar yaralangan edi, Simba Quvonchbekni sudraganicha kabutarning yoniga olib keldi. Quvonchbek kabutarni olib uyiga qaytdi va bir necha kun parvarish qildi. Kabutar bir oz uchmay turdi. Keyin uchayotib

Quvonchbek va iti Simbaga rahmat aytgancha uchib ketdi. Kunlar ketidan kunlar o'taverdi. Bu hovliga kabutar tez-tez kelib turadigan bo'ldi va itga yaqinroq joyga qo'nib o'zicha g'o'ng'illab bir nimalar der edi. Har kungidek kabutar yana shu hovliga kelganda, afsuski, Simba yo'q edi. Kabutar pitirlagancha u yoq-bu yoqqa uchib Simbani qidira boshlabdi. Lekin hech qayerdan topolmadi. Kabutar baland ko'tarildi va qo'shni hovlida bolalar Simbaning bo'ynidan ip solib sudrab olib ketishayotganini ko'rib, arqon ushlagan bolakayning yuzidan cho'qidi. Bola dodlaganicha Simbani bo'shatib yubordi. Buni ko'rgan boshqa bolalar oyog'ini qo'liga olganicha qochib qolishdi. Simba esa o'z uyiga qaytib keldi. Hayotda har xil voqea-hodisalar bo'lganidek, it bilan kabutar ham ana shunday do'st bo'lib qolishdi.



Amirbek ODAMBOYEV,

Xorazm viloyati, Xazorasp tumani «Go'zal» bog'cha-maktab majmuasining 4-«A» sinf o'quvchisi.

Ko'chasidagi tengqur qizlarning sarvari bo'lib yurgan Ma'muraning hurmati birdan tushib ketdi. Kuni kecha ham uning dugonalariga aytgani aytgan, degani degan edi. Biror bir qiz uning so'zini ikki qilmas, uyidan chiqishi bilan oldiga zing'illab kelardi. Katta-kichigi u qayerga boshlasa, o'sha yerga orqasidan ergashib yurardi. Ma'mura bundan faxrlanar, dugonalarining ishonchidan foydalanib, ularga «mehmon-mehmon» o'ynash uchun

– Nima, qizlar bilan oralarindan biror gap o'tdimi?

– Yo'q, hech qanaqa gap o'tgani yo'q. Meni ko'rishi bilan negadir har tomonga tarqalib ketib qolishayapti, dedi Ma'mura xomush holda.

– E, ha, shunday degin, Mohira opaning surma tortgan ingichka qoshlari chimirildi. Bir tamshanib oldi-da, sababini bildingmi? Axir ko'chamiz qizlarining sarvarisan-ku. Dugonalarindan birortasi o'rtalariga sovuqchilik solgan. Buning tez oldini

ertaga doskaga chiqarsalar, qizarib qolaman-da.

– Ha, mayli, yod olaver, Dilduza, Ma'mura yon-atrofga bir nazar soldida, past ovoz bilan: – Senga bir gap aytmoqchiman. Lekin meni aytdi demaysan.

– Qanaqa gap? qiziqsinib so'radi Dilduza.

– Aqidani yaxshi bilasan-a?

– Nega bilmas ekanman. Axir dugonamiz-ku.

– Voy tavba-yey, aytgani tilim

shunday dedi. Jahlim chiqib ketdi.

– Voy, qora tappi-yey. Shunday dedimi-a? Halimaning rangi bo'zarib, ko'zlari pirpirab ketdi. – Voy pismig'-yey, men unga ko'rsatib qo'yaman!

– Mayli, o'zingni bos. Og'ir bo'l, siringni bildirma, dedi Ma'mura uni tinchitgan, nasihat qilgan bo'ldi. – Hali chiq. Qiziq bir narsa ko'rsataman.

Ma'mura Salima turadigan uy tomonga tez-tez yurib ketdi. Halima

«MENI AYTDI DEMAGIN»

(Hikoya)

turli yumushlarni buyurardi. Qizlar ham e'tiroz bildirmay, aytganlarini bajo keltirishardi. Biri uyidan kichik stol, stullarni, kimdir konfet, pechenye, olma – xullas uyida bor narsalarini olib chiqib stolni to'ldirishar edi. Ma'mura esa ularning sarvari sifatida qizil stulchaga o'tirib olib, kim nima qilishini, xonadon sohibasi mehmonlarni qanday izzat-ikrom bilan kutib olishi lozimligini o'rgatib turardi.

Hozir esa nimagadir dugonalari birdan yuz o'girishdi. Ko'chaga chiqishi bilan qizlar go'yo uni ko'rmaganday guruh-guruh bo'lib har tomonga tarqalib ketish, o'zaro pichir-pichir odatini chiqarib olishdi. Ular orasidan qanday qora mushuk o'tdi? Ma'mura ularni o'ylab peshayvonda xomush xayol surib

olish kerak. Bunday ishni qaysi qiz qilishi mumkin?

– Dilduza bo'lsa kerak-da. Yana, qaydan bilay, lanj javob qildi Ma'mura holatini o'zgartirmay.

– Dilduza dedingmi? – takror so'radi Mohira opa. – Ra'noning nevarasimi?

– Ha, o'sha.

– Voy zumrasha-yey, jig'ibiyroni chiqdi onasining. – Buvisiga o'xshash qitmir ekan-da. O'sha dugonangning o'zi turqi sovuq. Gazak olmasdan men aytgan ishni qil, qizim.

– Qanaqa ish, oyi? – Ma'mura qani aytgani, degandek onasiga tikildi.

– Buning yo'li oson, dedi Mohira opa qizi o'ziga tikilib turganini ko'rib, dilidagi rejasini tiliga chiqardi. – Har bir dugonangga o'zingni mehribon qilib ko'rsat, birining ikkinchisiga falonchi seni og'zi yirtiq, burni qiyshiq, dedi deb yomonlab qo'y. Shunda ular o'zaro teskari bo'lib, atrofigda yana

«Ma'muraxon, Ma'muraxon» deb girdikapalak bo'lishini o'zing ham sezmay qolasan, qizim. Ha, shunday qil.

Onasining gapi Ma'muraga kalavaning uchini topib berganday bo'ldi. Dik etib o'rnidan turib, ko'chaga chiqishga otlandi. «Bu ishni pismiq Dilduzaning o'zidan boshlayman. U dugonalarimni menga qarshi qo'yish uchun yo'q yerdagi narsalarni to'qib chiqargan bo'lishi aniq», degan fikrni ko'nglidan o'tkazdi.

Birinci bo'lib Dilduzani chaqirdi. U uyidan qo'lida kitob bilan chiqdi. Ma'mura uni ochiq chehra, xursandchilik bilan qarshiladi-da:

– Uzzukun qo'lingdan kitob tushmas ekan-da, dugonajon, dedi Ma'mura.

– Katta olima bo'lmoqchimisani deyman-a.

– Ustozim yod olishga buyurgan she'rni o'qiyapman. Yod olmasam

bormaydi, dedi Ma'mura ikki qo'lini ko'krigiga qo'yib. – Pismiq, gap tashish, hammani yolg'on gaplar bilan chalpish odati bor ekan. Begona qizlarga hammamizni yolg'on gaplar bilan yomonlab yurar ekan. Kecha qo'shni ko'chadagi qizga «Dilduza qora tappi. Mug'ombir qiz» degan so'zlarini o'z qulog'im bilan eshitdim. Yana meni aytdi demagin. She'ringni yod olganingdan keyin chiqqin. Qiziq bir narsa ko'rsataman. Xo'pmi? dedi-da, Ma'mura odati bo'yicha qo'lini siltab xayrlashgach, pildiragancha yurib ketdi. Dilduza esa uning orqasidan o'zicha nimalardir deganicha qarab qoldi. Temir darvozaning kichik tabaqasini zarb bilan yopib, ichkariga kirib ketdi.

Ma'mura Dilduza eshikni qattiq yopganligini eshitib, ich-ichidan quvondi. Demak, Dilduza Aqidadan jahli chiqqanligi aniq. Endi o'zi bilan apoq-chapoq bo'ladi. «Hozir Halimani chaqiraman. U laqma, gapimga chipchindan ishonadi. Unga Dilduza seni «koreyanka», ko'zi qisiq dedi desam yonib ketadi». Shularni ko'nglidan o'tkazgan Ma'mura Halimani chaqirdi.

Halima ukasini ko'tarib chiqdi. Ma'mura uni ochiq chehra, mehribonchilik bilan qarshiladi. Halima esa odati bo'yicha kulib ko'rishdi-da:

– Kechirasan, Ma'mura, hozir o'ynay olmayman. Opam ish qilayaptilar. Ukamga qarab turibman.

– O'ynagani chaqirganim yo'q, dedi Ma'mura ovozini pasaytirib. – Senga bir muhim gapni aytmoqchiman, xolos.

– Qanaqa gap ekan? – Ma'muraga ma'noli tikildi Halima. – Qiziq gapmi?

– Ha, faqat meni aytdi demasang, aytaman.

– Aytaqol, seni aytdi demayman.

– Dilduza hamma qizlarga seni «koreyanka», ko'zi qisiq deb yomonlab yuribdi. Voy tavba-yey, menga ham

esa Dilduza turadigan uy tomonga g'azab bilan qaradi-da, ukasini olib ichkariga kirib ketdi. Ma'mura Salimaga Halimani yomonladi.

Xullas, qizlarni bir-biriga yomonlab chiqdi-da, hech

narsa ko'rmaganday yana pildirab uyiga kirib ketdi. Bu qilgan ishidan mamnun bo'lib, o'zini karavotiga tashladi. Qizlar to'planib o'ynaydigan kechki paytni kutdi. Uzoq kutishga to'g'ri kelmadi. Oradan ko'p vaqt o'tar o'tmas ko'cha eshik

qo'ng'irog'i jiringlab qoldi. Aqida boshchiligida ko'cha qizlari to'plangan edi. Dugonalarining abzoyi buzuq, har birining dilida g'azab.

– Qani tuhmatchi, bu yoqqa chiqsinlar, Aqida ikki qo'lini beliga qo'yganicha, o'zini g'oz tutib turardi. – Kim-kimni yomonladi? Qani, ochiq aytib, isbot qilsin!

– Voy tavba-yey, voy tavba. Men nima depman, qizlar, Ma'mura bir daqiqa dovdirab qoldi.

– Ho-o, nima debman deydilar yana, dedi Dilduza. – Hammamizni bir-birimizga yomonlab, yo'q gaplarni to'qigan o'zlari emasmi? Aqidaga rahmat. Sening tuhmat gapingni topdi.

To'planib turgan boshqa qizlar uning gapini ma'qullashdi.

– Endi sen biz bilan, biz sen bilan o'ynamaymiz! Hammamiz sendan po'm, chiqdik. Hammamiz bilan achoq-machiq, pista po'choqsan!

Qizlar shunday deb, Aqidaning uyi tomon chopib ketishdi. Ma'mura esa sariq rangli darvozasi oldida og'zini ochganicha ag'rayib qoldi.

Karim RAHIM.




FRANSIYADA TA'LIM QANDAY EKAN-A?

Bola va dunyo

KICKINTOYLAR MAKTABI:

Go'daklikdan o'quvchilikka



Kickintoylarga, ya'ni ikki yoshdan olti yoshgacha bo'lgan bolalarga mo'ljallangan bunday bepul maktab - fransuzlarga oid xislat. Chunki boshqa mamlakatlarda bunday maskanlar yo'q. O'qituvchi va

tarbiyachilar bolaning yangi hayotga o'rganishiga, jamiyatda o'z o'zini topishiga, do'stlar bilan muloqotda bo'lishiga, o'zini va o'zini tushunishiga, bilim olishga ko'nikma hosil qilishiga tinmay mehnat qiladi.

O'YIN VA TA'LIM


Bolalarning parvarishi, ularni ovqatlantirish, uxlatish va boshqalar bilan asosan tarbiyachilar shug'ullansa, hissiyot, harakat, o'ylash va gapirishni o'rgatish, nutqni rivojlantirish, bilim berish o'qituvchilarga yuklatilgan. Bolalar sinf devorlariga chizilgan suratlar, burchaklarda tashkil etilgan turli mavzular, ya'ni oshxona burchagi, qo'g'irchoqlar burchagi, jonli burchak, kutubxona, turli o'yinlar burchagida bemaol o'ynashlari mumkin. Ularni tergap, harakat erkinligini ta'qiqlash mumkin emas. Shunda bolajonlar o'zlarini qiziqqan mashg'ulot bilan shug'ullanaveradi. Qo'l mehnatlari: rassomchilik, naqqoshlik, pishiriq pishirish, qo'g'irchoqlar yasash bolaning ijodiy o'sishiga beradi. Bir yuz ellik yilda buyon faoliyat yuritayotgan bunday maktablarga avvallari kambag'al oilalarning farzandlari qatnashgan bo'lsa, bugungi kunga kelib barcha oilalar o'z farzandini shunday bilim maskaniga berishayotganidan xursand. Bu ko'rsatkich 99 foizni tashkil etadi.

y o r d a m



BOSHLANG'ICH MAKTAB

Umumta'lim rivoji 1789-yilgi Fransuz revolyutsiyasidan keyin tashkil topgan. Ta'lim tizimi uch bosqich: boshlang'ich, o'rta va oliy ta'limga bo'linadi. Boshlang'ich ta'lim majburiy va bepul bo'lib, unda kickintoylar maktabini tugatgan 6 yoshli bolalar o'qiydi. Ta'lim besh yilga mo'ljallangan. Boshlang'ich maktabda o'qish, yozishdan tashqari xorijiy til, kompyuter saboqlari o'rgatiladi. Fanlar bir o'qituvchi tomonidan olib boriladi.



O'RTA TA'LIM

O'rta ta'lim ikki bosqich: kollej va litseyini o'z ichiga oladi. Ularda kollej sinflari teskarisiga yuradi. Masalan, 6-sinf, 5-sinf, 4-sinf, 3-sinf. Bizning shunday ilm dargohi - kollejda tahsil oladi. Haftada ikki soat, yilda ikki yo'nalishda «Ochiq marshrut» bo'yicha sayohat uyushtiriladi. U tabiat qo'yni, inson atlas, san'at sarhaddari, tabiiy fanlar, til va madaniyat, ijod va texnika sohalarini o'z ichiga oladi. O'qituvchining maqsadi o'quvchilarning bilimi yanada chuqurroq, o'zlashtirishi yanada yaxshiroq bo'lishidan iborat.

O'rta ta'limni tamomlagan o'quvchilar kasbga yo'naltirilgan, bakalavr ilmiy darajasini tasdiqlovchi diplom beradigan litseyda o'qiydi. Litseylari ham teskariga sakraydi: ikkinchi, birinchi, oxirgi. Litseyda o'qishni xohlovchilar uch yo'nalish: umumiy, texnologiyaviy, kasb-hunar kabi kulliyotdan birini tanlaydi. Litseyning ikkinchi sinfini tamomlagandan so'ng, istaklariga binoan ilmiy (bakalavr S), iqtisodiy (bakalavr E), tabiiy (bakalavr L) yo'nalishlari bo'yicha o'qib, diplomga ega bo'lishi mumkin. Keyin institut yoki universitetda o'qishni davom ettiraveradilar.

DUNYODA JOYLASHGAN FRANSUZ MAKTABLARI

Jahonning 133 mamlakatida, ya'ni AQSHdan tortib Shvetsiyagacha, Afg'onistondan Yangi Zelandiyagacha joylashgan 300 ta fransuz maktablari, 75 ta kollej va litseylari uch tashkilotga bo'ysunadi: Alyans Fransez (1883-yilda tashkil topgan, 1060 ta qo'mitasi fransuz tili va madaniyatini targ'ib qiladi), Fransuz oliy missiyasi (1902 -yil tashkil topgan, sifatli maktablar qurilishi tarafdori), Ta'lim Agentligi (1990-yil qayta tashkil etilgan, davlat ta'limini xorijda yo'lga qo'yadi). Bu maktablarda asosan xorijda ishlayotgan fransuzlarning farzandlari va xorijlik qiziquvchilar tahsil oladi. Unda fransuz tili va madaniyatini mukammal bilish, sifatli ta'lim olish mumkin. Biroq, o'z yurtidan ko'mak olib o'qiyotgan fransuz o'quvchilariga nisbatan xorijlik o'quvchilar ko'p miqdorda pul to'lashi kerak bo'ladi. Chunki bu maktablar pullik.

Muharrama PIRMATOVA.

(Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi taqdim etgan materiallar asosida tayyorlandi).

Dunyo darchasi

KATRINA, NABI TO'FONLARI AVI OLISHI MUMKINMI?

«Minglab Yangi Orleanliklar Katrina to'fonidan aziyat chekmoqdalar. Hozircha yuzlab kishi bedarak yo'qolgan...Ochlik, suvsizlikdan ham qurbonlar soni oshyapti...Shaharni qayta qurish uchun yillar kerak bo'ladi...», «Yaponiyada Nabi to'foni turar-joylarni, yo'llarni vayronaga aylantirmoqda. Elektr tarmoqlari uzilgan, aviareyslar to'xtatilgan...», «Gruziyada tinimsiz yomg'ir yoqqani sababli suv toshqini avj olgan», «Portugaliya o'rmonlarida issiq harorat natijasida yomg'in bo'lyapti». Bu kabi xabarlarni oynayi jahon orqali tez-tez ko'ryapmiz. Nahotki iqlim o'zgarishi global vaziyatlarni ko'payishiga sabab bo'lsa? Ha, shunday. Bunga atmosferani gaz bilan ifloslantirayotgan insoniyat aybdor. Planetamiz harorati 0,6 darajaga isigan. Shimol muzi esa 40 foizga erigan. Shu ahvolda davom etsa XXI asr oxiriga kelib harorat 2-6 darajaga ko'tarilishi mumkin. Bu 2100 yilda dengiz sathi 90 sm.ga ko'tariladi, Chikagoda davomli 40 darajadan yuqori issiq havo, Avstraliyada qurg'oqchilik va o'rmonlardan bo'ralagan tutun, Tinch okeanidagi orollar suvda, Yevropa esa to'fonlar iskanjasida qoladi degani. Olimlarning fikricha, avtomobil ot-aravaga, velosipedga, samolyotlar temir yo'l transportiga, suv transporti va dirijablga almasha, zavodlardan qora tutun chiqarilmasa, quyosh batareyalarida yuradigan ulovlar yo'lga qo'yilsa, vaziyat bir muncha yengillasharkan. Fursat oz. Bugungi qaror ertangi avlodimiz uchun zarur.

Muhtarama ULUG'OVA.

ZAMONDAN ORQADA QOLIBMIZ

Sinfxonada bolalar yo'qligidan foydalanib qizlar o'zaro sirlashib turgandik, shu payt sinfga kirib kelgan Durdonani ko'rib, barchamiz angrayib qoldik.

Ey yo'q-bey yo'q, bizga qarab qo'lini boshi barobar bir ko'tardi-da, tars-turs qilib odimlaganicha joyiga o'tirib oldi. Egnida antiqa libos. Sochlari shu qadar jingalak qilinganki, oldida qorako'l qo'yning yungi ipesholmaydi.

-Voy, Durdona, o'zingmisan? Muyassarining ovozidan barchamiz hushyor tortdik.

-Nimaga hammalaring baqrayib qoldilaring, o'zim bo'lmay katta xolalaringmanmi?

-Yurish-turishing haligiday, sinfimizga Maykl Jeksonning qizi kelib

qolibdimi deb o'ylabmiz!- Xandon solib kulganicha ta'kidladi Gulmira.

-E-e, buncha gapirdilaring! Bu yil ta'tilda dadam ish yuzasidan 3 oy Istanbulda bo'ldilar. Meni ham o'zlari bilan birga olib ketdilar. Yurish-turish, kiyinish, so'zlashishni ulardan so'rang. Sizlar bir burchakka tiqilib olib zamondan orqada qolib ketgan bo'lsalaring. Nimaniyam tushunardilaring.

Andoza

-Obbo, bilag'on-ey, yaxshiyam Istanbulda uch oy bo'libsiz, agar to'rt oy bo'lganingizda bormi...

Ovoz egasi sinf rahbarimiz Odiljon aka edilar. Barchamizning nigohimiz Durdonada bo'lgani bois ularning kelganlarini sezmay qolibmiz. Nafasimiz ichimizga tushib ketdi.

-B-i-ir o'rningizdan turing-chi, sizga o'n daqiqa javob, maktab formasida kechikmasdan darsga yetib keling.

Qizarib ketgan Durdona shart o'rnidan turdi-da, sinfdan chiqib ketdi.

Shahnoza MO'MINOVA,

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani, Jo'sh qishlog'i.

Bilag'on bolalar diqqatiga!

Siz gazetamiz sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga ma'lum qiling. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib yoziladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi.

Maqsadimiz: Bilimli bo'ling, chunki osmonni yulduzlar yerni esa bilimlilar bezar.



Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!

MALIKA BU XONADA, YO'LBARS U XONADA...



Bir mamlakatning qiroli zerikib, oz-moz ko'ngil yozmoqchi bo'libdi. O'z vazirini chaqirib, ikki yonma-yon joylashgan xonalarning biriga malikani, ikkichisiga yo'lbarsni kiritib qo'yishni buyuribdi. So'ng zindondan maxbusni keltirishni buyuribdi: «Agar maxbus malikani qaysi xonada ekanligini topsa, unga uylanadi, agar topa olmasa yo'lbarsga yem bo'ladi», deb shart qo'yibdi. Xona eshiklariga yozuv yozilgan taxtachalarni osib qo'yishni buyuribdi.

Sinov boshlanibdi. Qirol sinov davomida har bir xonada albatta yoki malika, yoki yo'lbars bo'lishini e'lon qilibdi. Shu bilan birga: «Yoki har ikkala xonada yo'lbars, yoki har ikkala xonada malika bo'lishi ehtimoldan holi emas», debdi.



I-sinov: Qasrga birinchi maxbusni keltirishibdi, «Malikaning qaysi xonada ekanligini top-chi?», debdi qirol va eshiklarga quyidagi so'zlar yozilgan ikkita xonaga ishora qilibdi:

BU XONADA MALIKA, BOSHQA XONADA ESA YO'LBARS BOR.

BU XONALARDAN BIRIDA MALIKA BOR. BUNDAN TASHQARI, BU XONALARDAN BIRIDA YO'LBARS BOR.

-Bu yozuvlarga ishonsa bo'ladimi?- deb so'rabdi maxbus.
-Birida rost jumla, ikkinchisida yolg'on jumla yozilgan,-deb javob beribdi qirol.

Maxbus eshiklardan birini ko'rsatib, jonini asrab qolibdi va malika diydoriga yetibdi. Maxbus qaysi eshikni ko'rsatgan?

II-sinov: Eshiklardagi yozuvlar almashtirilibdi va xonalarga mos ravishda yo'lbars yoki malika kiritilibdi. Bu safar eshiklarga quyidagi yozuvlar osib qo'yilibdi:

HECH BO'LMAGANDA XONALARNING BITTASIDA MALIKA BOR.

YO'LBARS BOSHQA XONADA.

-Bu yozilgan jumlar rostmi?- deb so'rabdi ikkinchi maxbus.
-Ularning har ikkalasi ham rost yoki har ikkalasi ham yolg'on bo'lishi mumkin,-deb javob beribdi qirol.


Maxbus tirik qolishi uchun qaysi eshikni ko'rsatishi lozim?

III-sinov: Qirol bu sinovda ham eshiklarga yozilgan jummalarning har ikkalasi rost yoki har ikkalasi ham yolg'on bo'lishi mumkinligini e'lon qilibdi. Yozuvlar esa quyidagicha ekan:

BU XONADA YO'LBARS, BOSHQA XONADA MALIKA BOR.

MALIKA BOSHQA XONADA.

Birinchi xonada kim bor? Ikkinchi xonada-chi?



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Yotibman-u, qotibman. Tushimdami, o'ngimdami bilmayman isib ketdimmi, ishqilib ustimdagi choyshabni nari surmoqchi bo'ldim. Ammo nimagadir qo'lim o'zimga bo'ysunmas, qimirlata olmasdim. Xayolimda yelkam aralash birov meni bosib turardi. Azbaroyi uyquning shirinligidan ko'zim ochilmas, miyamning allaqaysi hujayralari g'ira-shira ishlab, kim bo'ldi ekan, degan o'ylarga borar edi. Kallamga kelgani Popoch bo'ldi. Voy shumtaka-yey, kunduzi qo'rqimissimi, deb bekorga so'ramagan ekan-da. Yengiltak, shayton qiz deyman-da, sal o'zimga kelib ko'zimni ochaman. Ammo... eee... hayratdan qotib qolaman. Meni qimirlatmay qo'ygan Popoch emas, boshqa... ha boshqa qiz edi. Voy bo'o'o'... uni! Odam ham shunaqa chiroyli bo'ladimi? Esim og'ib qoldi. Biz studentlar shu paytgacha besh ketib o'zimizcha hur deb yurgan qizlarning birortasiga o'xshamas edi. To'g'rirog'i, ularning husni-jamolini bir qilganda uning birgina g'amzasiga alishib bo'lmas edi. Oy nurlari uning sutdek oppoq yuzini, taralgandek uzun-uzun kipriklarini, chaqnab turgan ehtirosli ko'zlarini yoritib turardi. Ajabo, oymoma deraza tarafga qachon o'tib ulgurdi ekan? Qizning ko'zlari qo'lga tushdingmi sen yigit, degandek tobora ayyorona suzilar, jilmayganda tishlari sadafdek yarqirardi. Sochlari to'lqin-to'lqin bo'lib, uyning nimqorong'uligiga qo'shilib ketgan edi. Uning qarashlarida senga yomonligim yo'q, ey yigit, degan bir ishoralar bor edi-yu, ammo kulib turib er parchin qilib ezardi. Ko'krak qafasim qisilib, nafasim og'zimga tiqila boshladi. Qiz ukpardek yengil ko'ringani bilan unda qandaydir yovuz, yovvoyi kuch bor edi. Ana shu kuch o'zining kimligini menga sezdirib qo'ydi. Ko'zimni chirt yumdim-da, bilgan suralarimni takror va takror o'qiyverdim. Sezib turibman, ustimdagi «yuk» asta-sekin yengillasha boshladi. Yengillashgan hamonoq uxlab qolibman. Bir mahal childirma ovozi-yu, g'alati qiyqiriqlardan uyg'onib ketdim. Oymoma hamon derazamdan nari ketmagan, shu yaqin atrofda to'y bo'lardi chog'i. Hayron bo'lib soatimni oy nuriga tutib ko'raman. Uchdan oshibdi... Qo'qonda to'ylar kech boshlanib, tongotar tugur ekan-da deb, uyquli ko'zlarimni yumaman... Bir ko'nglim chiqsam-chi, Qo'qonning to'ylari qanaqa bo'larikin, ko'rsam-chi deydi. Uyqu zo'r keladi...

Erta bilan uyqudan tiniqib uyg'onsam, tungi voqealar shundoq ko'z oldimda turibdi.

Biz olov yoqib, samovar qo'yib, choy qaynatmasdik. Choynakka quruq choy solib choyxonadan dog'suv burab kela qolardik. Erinsak, Popochdan iltimos qilardik. Ularnikida ertadan-kechgacha samovar jig'illab yotardi. Qarasam, Mirvohiddan darak yo'q. Qotgan-qutgan non bilan tamaddi qilib bo'lsayam, praktikaga borishim, Mirvohid uchun ham bir bahona topishim kerak edi. Choyxonadan dog'suv burab kelishimga Mirvohid opasi bilan kelib qoldi. So'riga joy qildik. Dasturxon shohona bo'pketdi. Qo'shni hovlida qassob tog'aning gurillagan ovozi eshitib, choyga taklif qildik. Tog'a yo'q demadi. Tuynukdan yonlamachasiga o'tib keldi. Ko'rinishidan juda polvon odam edi. Popoch otasiga tortgan edi.

Oling-oling bilan choy ichar ekanmiz, Qassob tog'aga gap qotdim:

- Qo'qonning to'ylari tongotar bo'larkan-a, Qassob tog'a?

- Qattagi to'yga boraqoldingiz, jiyan? - dedi pishillab.

- Shetta bo'ldi-yu...

- Shetta? Him...-deb kuldi qassob.

- Shu yaqin-atrofda-da ertametangacha gumbur-gumbur to'xtamadi-ku, eshitmadingizmi?

Qassob tog'a non chaynashdan to'xtab, yog'li ko'zlarini lo'q qilib menga qaradi-da, eshitmadim degandek boshini sarak-sarak qildi.

- Tushunarli, - dedim men kulib, - kecha ko'payib ketibdi-da, a?

- Vohidjon, yaqinroq o'tiribsiz, og'aynizni peshonasini ushlab ko'ring-chi, isitmasi yo'qmi? - deb qalin qoshlarini uchirib kuldi Qassob tog'a.

Mirvohid kaftini peshonamga bosdi-da:

- Joyida-yu, - dedi xandon otib kulib.

- Tavba, - dedi Qassob tog'a taajjubda, - mahallada to'y bo'larkan-u mensiz o'tarkanmi, naq ko'chirtirvorarman. Hovlida jinlar bazm qilgandir, - dedi pinagini buzmay.

- Voy, tog'a, unaqa demang qo'rqaman, - dedi Mirvohidning opasi ko'zlari alang-jalang bo'lib.

Men tunda bo'lib o'tgan voqealarni birma-bir, oqizmay-tomizmay gapira boshladim. Mirvohid bilan opasining nonushtayam eslaridan chiqib angrayib o'tirishar, Qassob tog'agina beparvo, hali piyozli nonni qaymoqqa bulab urar, hali daroyini g'ujumlab og'ziga tashlar edi.

Tungi sarguzashtlarim tugagach, Mirvohidning opasi kapalagi uchib, «bu gaplarga nima deysiz» degandek Qassob tog'aga qaradi.

Qassob tog'a sovub qolgan bir piyola choyini og'ziga ag'dardida, naq supradek keladigan kafti bilan lab-lunjini artib, dedi:

- Bir balosi bo'lmasa shudgorda quyruq na qilur, degan ekan mashoyihlar. Bu uyni ijaraga olayotganda sal o'ylamadilaringmi olim yigitchalar. Nimaga shunday uy egasiz huvillab yotibdi deb. Yana shaharning qoq o'rtasida-ya. He... Bu hovlida ko'p ishlar bo'lgan sizlarga aytsam. Ha, yomon bo'lgan, yomon. Oldingi egasini qora buqa bo'lib suzib o'ldirgan. Xotini arzon-garovga issig'ida pulladi-da, bola-chaqasini olib jo'nab qoldi. Keyingi sotib olgan odamni qora mushuk bo'lib, bo'g'ib o'ldirdi. Bunisi sotolmay ketib qutuldi. Choyxonachi, u yoq-bu yog'iga qarab, bir kun, yarim kunga musofirlarni qo'yib foydalanib turadi. Siz yigitni Xudoga yoqqan joyingiz bor ekan yo palagingiz toza... har tugul sizga hurqiz bo'lib ko'riniydi...

Dasturxonga fotiha o'qilgach, Mirvohidning opasi shoshib qoldi,

- Tur uka, tezroq chiqib ketaylik bu yerdan. Gap shu, endi betta yotmaysan, tamom.

Shunday qilib, ko'rpa-to'shagimizni orqalab yotoqxonaga qaytib ketdik...

Shularni o'ylab, Boymurod akaning sarguzashtlarini o'zimcha tushungan bo'laman va so'rayman:

- Nima deysiz, Boymurod aka, jinlar yana o'rdasiga qaytishadimi, yo'qmi?

- Kelmaydi, - dedi u kishi qat'iy ohangda, - ular siz bilan mendan ko'ra mardroq bo'lishadi. Quvilgan joylariga qaytib kelishmaydi. Buniyam rahmatlik Domla buva aytganlar.

Shunday qilib, bog'hovliga qilgan bu galgi safarim kutilmaganda ajoyib va g'aroyibotlarga boy bo'ldi. Yakshanba kuni kechga qarab qolgan-qutgan yeguliklarni Oqtoshning idishiga ag'dardim-da, omonat eshigimning tagidan it sig'adigan joy qoldirib, poyezdga shoshdim. Boshqa qo'shnilarim ham o'tlanib, yo'lga chiqishgan, uzun-qisqa bo'lib oldinda borishardi. Ro'paramdan kelayotgan mashina guvillab yonimdan o'tdi-yu orqamdan itning hurib, mashinaga tashlanganini eshitdim. Qayrilib qarasam, Oqtosh!

Orqamdan quvib, kepqopti. Bo'lmasa, «sen aqlli it ekansan, shu hovlidan chiqma» deb necha marta uqtirgan, Oqtosh

gaplarimga jimgina quloq solib qolgan edi. «Qayt orqangga» deya jo'rttaga ko'zlarimni ola-kula etib, po'pisa qildim. «He o'rgildim, sendaqa aqlli itdan, esing bo'lsa kelib-kelib mashinaga tashlanasanmi? Temir-ku bu. Nahotki joni bor bilan joni yo'qni bilmasang!» Qayda, gaplarimga parvoyam qilmadi. Qaytaga o'ynoqlab, erkanib oldimga tushib oldi. Shu nasihatni haddan oshirvordimov. Buning ustiga Oqtosh o'tgan har bir mashinaga hurib, tashlanishni qo'ymasdi. Unga sari Oqtoshni ajal haydab keldiyov, deya xavotirga tushaman. Boymurod aka ko'rsaydi buning ahmoqona qiliqlarini. Bu itmas - bir narsa! Hali orqamdan vagongayam chiqib, sharmanda qilmasaydi. O'zi vagonda it olib yurganlarni jinim



suymaydi. O'tirishga joy bo'lmaydi-yu, eshshakdek-eshshakdek itlarini cho'ziltirib oyog'ing tagiga yotqizib qo'yishadi. «O'zing-ku toqqa sayr-sayohatga chiqibsan, itingga balo bormi» deb g'udranardim.

Bekatkaga borsam poyezd jo'nashiga besh daqiqa vaqt qopti. Yo'lovchilar joylashib olgan, ochiq derazalardan boshlarini chiqarib, poyezd jilishini sabrsizlik bilan kutishyapti. Kun issiq edi. Oqtosh bir-ikki marta poyezdga chiqib yurgandek mendan oldin perronga borib oldi.

Taxminim to'g'ri chiqdi. Oqtoshni kimdir

Erkin MALIKOV

o'zi bilan poyezdda olib kelgan, adashib qolib ketgan. Aftidan kamina egasiga judayam o'xshasam kerak. Mana endi shaharga qaytib ketmoqchi. Boshga bitgan balo bo'ldi-ku bu it. Xayolimda Oqtosh mensiz ham vagonga chiqib oladigandek edi. Ha chiqaversin, tezroq daf bo'lsin, men o'zimni boshqa vagonga uramanu undan qutilaman. Qayda, it perronda meni sabr toqat bilan kutardi. Bu dahmazani shaharga olib borib qayoqqa joylayman. Hovlim bo'lgandayam boshqa gap edi. Axiyri bo'lmadi, qo'limga tosh oldimu rostakamiga dag'dag'a qildim. Oqtosh pildillavolib kelgan iziga qarab qochdi. Ha, shunchaki emas, rostdan jahlim chiqqanini bildi, jonivor. Orqasidan toshniyam mana bo'lmasam deb irtitvordim. Paytdan foydalanib o'zimni vagonga urdim. Tavba, halidan beri shu ishni qilmaymanmi? Vagonga chiqib Oqtoshni ko'rish mumkin bo'lgan qanotga o'tdim. Shu ketgancha ketdimikan yo?

Deraza ko'zidan panalab qarasam, qaytib kelyapti. Meni ko'rib qolmasin yana degan hadikda boshimni sal ichkari oldimu ammo ko'z qirimni uzmadim. Mabodo men chiqqan vagonga chiqadigan bo'lsa... unda boshqasiga o'tib ketishni o'ylardim. Oqtosh atrofga iskanlab, olazarak bo'lib qaray-qaray, to'g'ri men chiqqan vagon yonida to'xtadi. Keyin vagon tagiga kirib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Poyezdning jo'naydigan vaqti bo'lib qolgan edi. Bosib ketsa-ya! Derazadan rostmana boshimni chiqarib qaray boshladim. Vagon tagidan chiqib kelayotgan Oqtoshni tepadan ko'rdimu ilkis boshimni tortib, bировga urib oldim. «Vah» deya kimdir yelkamga bir musht tushirib qoldi. Ayol kishi ekan, astoydil kechirim so'radim. Boshini ushlab tik turgancha yerga qarab oldi. Bechora-ya, it bilan bekinmachoq o'ynayotganimni qattan bilibdi. Ha, la'nati Oqtosh-a, boshga bitgan balo bo'lding-u sen. Ishqilib bu ayolning tish-pishi sinmagan bo'lsin. O'zimniyam boshim endi zirqiray boshladi. Iltimos qildim. Yoshlardan biri ayolga joy berdi. Gunohimni yuvgandek sal yengil tortdim. Poyezd joyidan qo'zg'algan, bekatdan uzoqlashib borardi. Oqtosh esimga tushdi-yu shoshib, orqaga qaradim. Oqtosh kimsasiz perronda shu tomonga qaragancha cho'nqayib o'tirardi... Tavba, vagonning tagidan bo'lsayam, mening qayerdaligimni bildi-ya.

(Davomi bor).

BOG'BON BILAN TOK

Dono bobo o'giti

Bir kun tok bog'bonga zorlanib dedi:

- Bog'bon bobo, mana bu yerga meni siz o'tqazdingiz, yetishtirdingiz, meni yetishtirguncha ancha peshona teri to'kdingiz. Shubha qilmayman, meni sevasiz, lekin nega meni buncha xafa qilib, anchagina novdalarimni kesib tashlaysiz, meni yig'latasiz?

Bog'bon shunday javob berdi:

- To'g'ri aytasan. Tokim, men sening joningni og'ritib bir oz xafa qilaman, lekin sening foydang uchun shunday etishga majburman. Bu ishimni «xomtok qilish» deyдилar. Agar sening ishga yaramaydigan foydasiz novdalarini kesib tashlamasam, bu ortiqcha novdalar, barglar seni bo'g'ib qo'yadi, u vaqtda go'zal va shirin uzumlar bera olmasan. Sening badaningni og'ritaman-u, lekin seni go'zallashtirib, badaningga kuch-quvvat beraman.

Sevimli bolalarim, bog'bonning so'zlari to'g'ri emasmi? Endi mening shu ikki og'iz so'zimni aslo esingizdan chiqarmang.

1. Ota-onalaringiz va muallimlaringiz dars tayyorlamasdan, ko'p sho'xlik qilsangiz, sizlarni qattiq ushlaydilar, koyiydilar, ba'zan jazo ham beradilar. Ota-ona, muallimlaringiz sizlarning tarbiyachilaringizdirlar, sizlarni koyishlari-hammasi foydangiz uchun. Agar bog'bon xomtok qilmasa, tokning holi qanday bo'lishini bilasiz. Agar ota-ona, muallimlaringiz sizlarning ishlaringizni nazorat ostiga olmasalar, yoshingiz ulg'ayganda qanday holga tushishingizni o'ylang.

2. Bolalarim! Ota-ona, muallim va yoshi kattalarning so'zlariga itoat qiling, darslaringizni yaxshi tayyorlang, sho'xlik qilmang, hech kimga yoqmaydigan ishlarga yo'nalmang, odobli, tarbiyali bo'ling, xo'pmi?!



Yozda Toshkentga sayohatga bordik. O'zgarishlar ko'p ekan-u, lekin bitta voqea noxush taassurot qoldirdi. Odamlar gavjum metro bekatidagi o'rindiq chetiga sumkamni qo'ydim-u qo'limdagi kitobni unga solmoqchi bo'lib egildim. Shu payt yonimda tik turgan qizning kalta koftasidan qorni

kindigi aralash doka bilan aylantirib bog'langaniga ko'zim tushib seskanib ketdim. Sumkamni tizzamga olib o'tirgach, yonimga nazar solsam, ikki ovro'pa millatiga mansub ayol yonma-yon o'tirishar, ularga qarama-qarshi haligi qorni bog'langan qizu uning yonida dugonasi turardi. Aftidan, bular qizlarning onalari.

-Svetlana, qorning og'riyaptimi? - so'radi o'tirgan ayollardan biri.

Rus tilini yaxshi bilganim uchun beixtiyor ularning gaplariga quloq tutdim.

-Ha, biroz, kecha vannada cho'milgan edim. Liza ham cho'milibdi, unga hech narsa bo'lgani yo'q, mening kindigim, Ro'shana xolam isirg'a taqqan joyi qizarib shishib turibdi, - deb ta'kidladi qo'lini qorni

ustiga qo'yganicha.

-Buningizning eti nozik shekilli, Raya xola! Mana, mening isirg'amni qarang, qanday chiroyli turibdi. -Liza shunday deganicha qo'lini beliga qo'yib u yoq-bu yoqqa o'girildi-da, yaqinroq kelib ochiq qornini ko'rsatdi.

Qattiq seskanib ketdim.

KINDIK ISIRG'A

Beixtiyor men ham o'ng qo'lim bilan qornimni ushlab olibman. Ne ko'z bilan ko'rayki Lizaning kindigi chuqurchasidan boshlangan qorin balandligida yangi rumda bo'lsa kerak, 15 santimetrcha uzunlikdagi ko'zlik isirg'a xuddi quloqdagidek silkinib turardi. Demak, Svetlananing qorni shu isirg'adan qizarib shishgan ekan-da. Tibbiyot tili bilan aytganda, odamning qorni, kindigi eng nozik a'zolaridan hisoblanadi. Axir biror mikroob tushsa bormi,

Samarqand viloyati, Oqtosh shahridagi 60-maktabning 7-sinf o'quvchisi.

tavba deya yoqamni ushladim.

-Sen kimga borgan eding, u yaxshi mutaxassis ekanmi, Liza? Svetlananing qornini bir ko'rsatib, singlisi Tatyana ham kindik isirg'a taqtirardim, - so'radi Raya xola.

-Ha. Tibbiyot sohasida o'qigan ekan. Shpris yordamida isirg'a teshik qilar ekan.

Ulug'bek metrosidan ikki bekat naridagi kosmetologga borgandim. Xohlasangiz, birga olib boraman.

-Bo'pti.

Bu ayollar jinni bo'lishganmi! Qizlarini nima qilishmoqchi? Kindikdagi isirg'a kimga kerak?!

Ayting-ayting, bu yarashmagan qiyshiq qizlaru ularning nodon onalarining qiligi mening o'smalar suvi yugurtirilgan, payvasta qosh dugonalarimga aslo yaqin yo'lamasinda, ishqilib.

Shohsanam NURMATOVA,

Samarqand viloyati, Oqtosh shahridagi 60-maktabning 7-sinf o'quvchisi.

BUVIJONNING SIGIRI NEVARALI BO'LDI

Ano'shervon ota-onasi bilan shaharda yashardi. U har yil yozgi ta'tilda qishloqqa - buvijon va buvajonisining uylariga borardi.

Bir marta qishloqda bo'lgan paytida buvijonning sigiri buzoqcha tug'di. Bu voqea uning xotiridan ketmasdi. Bir necha vaqtdan keyin Ano'shervon yana buvijonisikiga mehmonga bordi va o'sha buzoqchani katta bo'lib, buzoqcha tuqqanini ko'rdi. U quvonib buvijonisi oldiga borib dedi:

-Buvijon, suyunchi bering, sigiringiz sizga o'xshab navarali bo'ldi.

QO'LIM OG'RIYAPTIMI?

Sarvarning barmog'i eshik o'rtasida qolib ketdi. Sarvar oh-voh ko'tarib, onasining oldiga yugurib keldi.

-Onajon, ko'ring, qo'lim og'riyaptimi?

NOS QO-VOQ

Ota birinchi sinfda o'qiyotgan bolasidan nosqovog'ini olib kelishni so'radi. Nos shampun shishachasiga solib qo'yilgan edi.

-Qani, Jovid, o'qib ber, shishacha ustiga nima yozilgan ekan? - deb so'radi otasi «Shampun» yozuvini ko'rsatib.

Jovid shishachadagi yozuvni sinchiklab o'qimoqchi bo'ldi, lekin o'qiy olmagach, har ehtimolga qarshi dedi:

-Nos qo-voq!

Ukalarangiz kuldiradi

UXLAYAPSANMI?

Bolalar bog'chasida Shahbozning uyquasi kelmayotgani uchun ko'zlarini yumib yotar edi. Bog'cha opasi buni payqab qolib, sekin uning yoniga kelib so'rabdi:

-Uxlayapsanmi?

-Ha, - javob berdi Shahboz.

Zebuniso TOHIRIYON.

Ishbi-lar-mon	Uya	Xonanda	Lahza	Balo	Masala	Hamroh	Ziyon	Mo'y-qalam sohibi
Yagona	Olov	...dan qolgan dalalar	Quyosh xudosi	Tanali hayvon	Ho'l Bog'i	Xaloyiq	Rame-tova	Odin (Film)
Mam-lakat	...Al Buxoriy Xudo	Asadova (xonanda)	Eshon-to'rayeva	-bugri Mir-karim	Bit-magan	Koka	Kumar	
Issiq ham sovuq emas	...Turk shoiri Hikmat	Don Ki-xot do'sti	Jo'xorili non	Ichra	Faro-biy	qomat	Vafos emas	Yer o'chov birligi
lim demaydi	Pichoq	Nordon	...lar (Guruh nomi)	Mezoriy	Safin (tennis)	Xirurg Usta	havo	
Shikor	A.Qah-hor romani	Rasvo	Alif, be, se...	I shaxs ko'plik	Estrada guruh nomi	Milliy taom	Kafe	
Nota	Qasam	Yuzdagi chiziq	Niyoz-metova (xonanda)	Tushum kelishigi	halovat			
Xamirli taom	Jet ... (Aktor)	Charm						

Tuzuvchi: Madina SAIDMURODOVA, Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 5-ixtisoslashgan maktabning 9-sinf o'quvchisi.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 14 299
Buyurtma N: J 1609

Dizayner va sahifalovchi:
Otabek
ESHCHANOV.
Navbatchi:
Muharrama
PIRMATOVA.

Rassom:
Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38
144-38-10
144-63-08
Tel./ faks:
(99871) 144-24-45